



**GAROVGA QO'YILAYOTGAN TRANSPORT VOSITASINI SUG'URTALASH
NAMUNAVIY SHARTNOMASI № 16/30/1/2600487**

Qo'qon sh.

14.09.2026 йил

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 2022 yil "25" fevralda berilgan SF seriyali 00037-son litsenziya asosida faoliyatni amalga oshiradigan, keyingi o'rinlarda **"Sug'urtalovchi"** deb ataluvchi "MY-INSURANCE" AJ ST, 05.01.2026 yilda berilgan №37-Sonli bosh ishonchnoma asosida xarakat qiladigan ФАРФОНА ВЕЛЮЯТИ Direktori Abdullayev.S.A bir tomondan keyingi ikkinj o'rinlarda **"Sug'urta qildiruvchi"** deb ataluvchi, uchinchi tomondan **"Garovga qo'yuvchi"** deb ataluvchi KADIROV ABDUVALI VASSIYEVICH, to'rtinchi o'rinlarda **"Naf oluvchi"** deb ataluvchi "Universalbank" ATB Golovnoy ofis, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1-BO'LIM. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (Sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (Sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (Sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (Sug'urta qildiruvchiga yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga, Naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan transport vositasiga yetkazilgan zararni shartnomada belgilangan summa (Sug'urta puli) doirasida qoplash (Sug'urta to'lash) majburiyatini oladi.

1.2. Mazkur shartnoma shartlari asosida qarz oluvchi tomonidan tasdiqlangan shakldagi Arizaga muvofiq taqdim etilgan ma'lumotlar asosida QR-kodli sug'urta polis rasmiylashtirib beriladi

2-BO'LIM. TA'RIFLAR

Quyida keltirilgan, ushbu shartnomada foydalanilgan atamalar, agar boshqacha kelishilmagan bo'lsa, quyidagi ma'nolarga ega:

2.1. **Sug'urtalovchi** - mazkur sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha sug'urta qoplamasini amalga oshirish majburiyatini qabul qiluvchi sug'urta kompaniyasi bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Sug'urtalovchi nomidan uning xududiy filial va bo'lim/bo'linmalari amaldagi qonunchilikka muvofiq sug'urta faoliyatini amalga oshiradi.

2.2. **Sug'urta qildiruvchi** – Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan va Sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatlarga kiruvchi jismoniy va yuridik shaxslar.

2.3. **Sug'urta QR-kodli sug'urta polisi** – Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti to'langandan keyin beriladigan, sug'urta mukofoti to'lanmasdan turib berilganida sug'urta mukofoti to'langanidan keyin kuchga kiradigan xamda Sug'urtalovchining mazkur sug'urta shartnoma shartlariga muvofiq sug'urta to'voni (qoplamasi)ni to'lash majburiyatlarini tasdiqlovchi hujjat.

2.4. **Sug'urta puli** – Sug'urtalovchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlari hajmining chegarasini aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

2.5. **Sug'urta mukofoti** – Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi Sug'urtalovchiga ushbu Shartnoma bilan kelishilgan tartib va muddatda to'lashi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov.

Shuningdek, sug'urta mukofoti to'langandan so'ng, Sug'urtalovchi tomonidan QR-kodli sug'urta QR-kodli sug'urta polisi taqdim etiladi, va bu qat'iy ro'yxatda turuvchi sug'urta QR-kodli sug'urta polisiga tenglashtiriladi. (asos: O'z.Res.VM ning 694-sonli qarori)

2.6. **Sug'urta hodisasi** – Sug'urtalangan transport vositasining sug'urta muddati mobaynida bevosita ushbu Shartnomaning 3 – bo'limida keltirilgan qaltisliklardan to'g'ridan – to'g'ri jismoniy shikastlanishi, yo'qotilishi yoki nobud bo'lishi natijasida Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchining mulkiy manfaatlariga zarar yetishi.

2.7. **Sug'urta to'voni** – Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchining zararlarini qoplash uchun to'lanadigan pul mablag'lari miqdori.

2.8. **Naf oluvchi** – Sug'urta qildiruvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha sug'urta tovonini oluvchisi sifatida tayinlangan va Shartnomada ko'rsatilgan shaxs.

2.9. **Shartsiz franshiza** – Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan, Sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan Sug'urta qildiruvchi zararlarining bir qismi.

2.10. **Sug'urtalangan transport vositasi** – ishlab chiqaruvchi zavod to'plamidagi, garovga qo'yilayotgan va ushbu Shartnomaning 2-ilovasida ko'rsatilgan transport vositasi (quyida – «sug'urtalangan transport vositasi» yoki «transport vositasi»).

2.11. **Haydovchi** – Sug'urtalangan transport vositasini boshqarishga ruxsat beradigan toifali haydovchilik guvoohnomasiga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalangan transport vositasini boshqarish ruxsatnomasiga (ishonchnoma va/yoki yo'l varag'iga, majburiy sug'urta polisiga) ega bo'lgan shaxs.

2.12. **Sug'urta shartnomasi amal qilish muddati** – Sug'urta shartnomasi amalda bo'ladigan davr.

2.13. **Sug'urta muddati** – Sug'urta QR-kodli sug'urta polisida ko'rsatilgan davr. Ushbu shartnoma bilan shartlashilgan sug'urta, mazkur shartnoma kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan tadbir etiladi va sug'urta QR-kodli sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

2.14. **Geografik hudud** – Sug'urta QR-kodli sug'urta polisi amalda bo'ladigan hudud. Ushbu Shartnoma bo'yicha, agar boshqa

Imzo: Sug'urtalovchi
oluvchi

Imzo: Naf

shartlar kelishilmagan bo'lsa, Geografik hudud bo'lib O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi.

2.15. **Tabiiy yong'in** – tabiiy ofatlar natijasida kelib chiqqan yong'in. Bu tabiiy omillar, masalan chaqmoq yoki quruq ob-havo sharoitlari natijasida yuzaga keladigan yong'inlar.

2.16. **Portlash** – gaz yoki bug'larning kengayishiga asoslangan, katta miqdordagi energiya shiddat bilan otilib chiqishi. Rezervuar portlashi bo'lib rezervuar ichkarisida va tashqarisidagi bosim tenglashishiga olib keladigan darajada rezervuar devorlarining yorilishi. Agar rezervuar ichida kimyoviy reaksiya tez kechishi natijasida portlash sodir bo'lsa, uning devorlari yorilmagan bo'lsa ham, bundan yetkazilgan zarar sug'urta bilan qoplanadi. Vakuum yoki gazlarning siyraklashishi natijasida yetkazilgan zarar sug'urta qilinmaydi.

2.17. **Yashin urishi** – uskunadan mahrum bo'lishga (nobud bo'lishiga) olib keluvchi, unga yashinning to'g'ridan-to'g'ri tegishi (yashin – bulutlar o'rtasidagi yoki bulut va yer o'rtasidagi elektr razryadi). Yashinning issiq ta'siri va yashin oqibatida havo bosimi ta'siri ham sug'urta bilan qoplanadi.

2.18. **Zilzila** – yer qarida muntazam sodir bo'ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranilishi bilan kuzatiladigan tabiiy jarayonlar natijasi (Rixter shkalasi bo'yicha 9 ball dan yuqori bo'lgan holatda).

2.19. **Suv toshqini** – daryo, ko'l, dengiz sathining ko'tarilishi yoki damba, to'g'on buzilishi natijasida hududni sezilarli darajada suv bosishi.

2.20. **Ko'chki** – shamol yoki yerusti yoki yerosti suvlarining ta'sirida, qirg'oq yonbag'irlarini yuvilishi va jinslarning og'irlik kuchi ta'sirida yoki zilzila natijasida tog' jinslarining qulashi.

2.21. **Yer siljishi** – dengizlar, ko'llar, daryolar, jarliklar yaqinida, chuqurliklarning, kanallarning tik qiyaliklari, shuningdek tog'larda o'z og'irlik kuchi ta'sirida yer massasining sekin siljishi.

2.22. **Dovul** – tezligi 32 m/s dan ortiq bo'lgan kuchli shamol. Shamol tezligi O'zbekiston Respublikasi Hidrometmarkazining hududiy muassasalari ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

2.23. **Do'l urishi** – do'ning bevosita ta'siri oqibatida sug'urtalangan uskunani har qanday yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

2.24. **Jala** – 12 soat yoki undan kam vaqtda 30 mm yoki undan ortiq katta miqdorda yog'ingarchilik bo'lishi bilan kuzatilgan kuchli yomg'ir.

2.25. **Qalin qor yog'ishi** – bunday qor yog'ishi ushbu hudud uchun kamdan-kam (g'ayrioddiy) holat bo'lishi sharti bilan qisqa vaqt oralig'ida odatdagidan ko'p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtda 20 mm va undan ko'p qor yog'ishi. Xo'jasizlik sababli sekin-asta ko'p miqdorda qor to'planishi qalin qor yog'ishidan farqlanadi.

2.26. **Suvdan zararlanish** – ichimlik suvi, oqava suvlar, isitish tizimlari, yong'inni o'chirish va haroratni maromida saqlash tizimlaridan chiqqan suv yoki suyuqlikning sug'urtalangan uskunaga jismoniy ta'sir qilishi yoki Sug'urta qildiruvchilarga tegishli bo'lmagan qo'shni joylardan suv kirishi.

2.27. **TVni o'g'irlanishi** – sug'urta qilingan MT ni va/yoki uning alohida qismlari va detallarini noqonuniy egallab olish maqsadida olib qochish, o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik, shuningdek, bunday o'g'irlash natijasida sug'urta qilingan MT ni shikastlanishi.

2.28. Uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari – Sug'urtalangan transport vositasi yoki uning alohida qismlarining uchinchi (o'zga) shaxslar tomonidan yondirilishi, sindirilishi, buzilishi, o'zlashtirilishi, shuningdek uchinchi shaxslarning qonunga zid/huquqbuzarlik/noqonuniy harakatlari natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi.

2.29. **Uchinchi shaxslar** – Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi / Haydovchidan boshqa har qanday shaxslar.

2.30. **Yo'l-transport hodisasi** – Transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, odamlarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqacha tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

2.31. **Tovar ko'rinishining yo'qotilishi** – Sug'urta hodisasi natijasida olingan shikastlanishlarni, shuningdek ob-havo va/yoki doimiy ta'sir etuvchi omillar natijasida yuzaga kelgan zararni bartaraf etish maqsadida sug'urtalangan transport vositasini ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirilishi oqibatida transport vositasining haqiqiy qiymatining yo'qotilishi va/yoki boshqa zararni anglatadi.

2.32. **Sug'urta qiymati** – Yangi TV uchun Avtosalonidagi sotuv narxi, Eski TV uchun ikkilamchi bozordagi narxi. Mazkur narxlar QR-kodli sug'urta polis rasmiylashtirilgan kundagi narxlar asosida belgilanadi.

3-BO'LIM. SUG'URTA HODISASI

3.1. Mazkur Shartnoma shartlariga ko'ra, Sug'urtalovchi Shartnomaning 2-ilovasida ko'rsatilgan sug'urtalangan transport vositasiga sug'urta himoyasini bilvosita quyidagi qaltisliklar natijasida sug'urta hodisasi sodir bo'lganda taqdim etadi:

- tabiiy yong'in, portlash, yashin urishi;
- zilzila, suv toshqini;
- yer siljishi, ko'chki, kuchli shamol;
- dovul, do'l urishi, jala, ko'p qor yog'ishi;
- buzib o'g'irlik qilish, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari;
- Yo'l-transport hodisalari;

3.2. Maxsus qo'shimcha shart:

Ushbu bilan Shartnoma bo'yicha tomonlar mustaqil qismlar, tizimlar, bog'lovchi qismlar, moslamalarga (olib qochishga qarshi uskunalar, avtomagnitolalar, ovoz kuchaytirgichlar, karnay(dinamik)lar, sport diskalari, har qanday turdagi antennalar va hokazolarga) yetkazilgan zarar, agar ular ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan o'rnatilmagan, sug'urtalangan transport vositasi to'plamiga kiritilmagan yoki ushbu Shartnoma bilan qo'shimcha jihoz sifatida sug'urtalanmagan bo'lsa, ushbu Shartnoma bo'yicha qoplanmasligini tasdiqlaydilar va bunga rozi bo'ladilar.

4-BO'LIM. UMUMIY ISTISNOLAR

Imzo: Sug'urtalovchi
oluvchi

Imzo: Naf

4.1. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi quyidagi holatlarda Sug'urta qildiruvchining yuzaga kelgan zararlari bo'yicha javobgarlik olib bormaydi:

- Sug'urta qildiruvchining yoki avtotransport vositasi ularning tasarrufida bo'lgan boshqa shaxslarning sug'urta hodisasining yuzaga kelishiga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari, ularning o'z fuqarolik burchini bajarishi yoxud o'zining va uchinchi shaxslarning hayotini, sog'lig'ini, sha'ni va qadr-qimmatini himoyalash bilan bog'liq harakatlar bundan mustasno;

- istalgan shakldagi alkogolli, giyohvandlik yoki toksik mastligi holatida yoki reaksiya tezligini va diqqatini pasaytiruvchi dori preparatlarining ta'sirida bo'lgan Haydovchining avtotransport vositalarini boshqarishi, betoblik yoxud qattiq charchoq holatida boshqarishi, uxlab qolishi natijasida YTH sodir etishi, tibbiy ko'rikdan (yo'l-transport hodisasi haqida xabarnoma tuzilgan paytdan e'tiboran to'rt soat ichida haydovchilarning mastlik holatini aniqlash bo'yicha tibbiy tekshiruv ekspertizasidan o'tmagan bo'lsa) o'tishdan bosh tortsa yoki o'tmagan bo'lsa;;

- haydovchining olovdan va portlashdan xavfli moddalarni va buyumlarni saqlash va tashish qoidalarini buzishi;

- haydovchining temir yo'ldan o'tishda yo'l harakati qoidasini buzishi, svetoforning taqiqlovchi chirog'ida harakatlanishi va yo'lning qarama-qarshi harakat yo'l tasmasiga chiqib harakatlanishi shu jumladan chiqib ketishi;

- O'zbekiston Respublikasi Yo'l harakati qoidalarining 78, 79, 80, 81 bandlarida ko'rsatilgan transport vositalarning tezlik harakati qoidasini buzishi va quvib o'tish, qizil chiroq, qarama qarshi harakatlanish qoidasini buzish;

- Sug'urta qildiruvchi/Xaydovchining extiyotsizligi yoxud uxlab qolishi, qattiq charchoq oqibatida yo'l transport xodisasini sodir etishi, yo'l qatnov qismining qarama-qarshi yo'nalishga chiqib ketishi yoki xarakatlanishi, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik va yo'l-transport hodisasi qoidalarini buzgan holda yuz bergan joydan ketib qolishi;

- yo'lning harakat qismining notekisligi yoki yomon holati, o'tkir buyumlarni bosib o'tishi tufayli shinalarning shikastlanishi, agar ularning shikastlanishi avtotransport vositasining shikastlanishiga yoki nobud bo'lishiga olib kelmagan bo'lsa;

- sug'urta qilingan TV ni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq transport vositasini boshqarishga huquqi va ruxsati (haydovchilik guvohnomasi, ishonchnoma, yo'l varaqasi, majburiy sug'urta polisi va boshqalar) bo'lmagan shaxs tomonidan boshqarilishi. Mazkur bandning qoidalari sug'urta qilingan TV o'g'irlangan taqdirda qo'llanilmaydi.

- Yo'l transport xodisasi sodir bo'lganda Qarzdor/Xaydovchi tomonidan ushbu sodir bo'lgan xodisa bo'yicha O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021 yil 27 sentyabrda 609-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Transport vositalari yegalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar" ga asosan "Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma" (Yevroprotokol) tartibi bo'yicha rasmiylashtirilishi.

- doimiy ta'sir yetuvchi foydalanish omillarining ta'siri (eskirish, korroziya, quyqa hosil bo'lishi va hokazo), umuman avtotransport vositasi, shu jumladan uning ayrim detallari va tarmoqlarining asta-sekin shikastlanishi.

4.2.2. Quyidagilar uchun sug'urta to'voni to'lanmaydi:

- tashqi omillar sabab bo'lmagan ichki buzilishlar uchun;

- avtotransport vositasiga o'rnatilgan va uning zavoddagi butlanishiga kirmaydigan qo'shimcha jihoz-uskunalarining o'g'irlanishi, nobud bo'lishi yoki shikastlanishi uchun, agar ushbu qo'shimcha jihoz-uskunalar sug'urta shartnomasining jadvalida tegishli pozitsiya bo'yicha maxsus ko'rsatilgan bo'lmasa;

- avtotransport vositasining o'g'irlanishi, uning uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari oqibatida yo'q qilinishi yoki shikastlanishi hamda jismlarning kelib urilishi natijasida, agar vakolatli organlarga (IIB, YXHB, FVB, YOXHB) qonunchilikga muvofiq o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, shuningdek agar ushbu holat vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanmagan bo'lsa;

- avtotransport vositasining shikastlanishi oqibatida uning tovar ko'rinishi yo'qotilishidan ko'rilgan zararlar;

- TV ga o'rnatilgan gaz uskunalarining (balon) portlashi, yonishi, gazning sizib chiqishi oqibatida yuzaga kelgan xar qanday zararlar.

- TVning dvigatel va yelektr tarmoqlari qismida har qanday turdagi qisqa tutashuv natijasida yuzaga kelgan zararlar;

- Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga shikastlangan avtotransport vositasini yoki uning qoldiqlarini taqdim yetishdan bosh tortgan holda, ular qoldiqsiz nobud qilinishi mumkin bo'lgan holatlar bundan mustasno;

- sug'urtalangan avtotransport vositasi davlat organlarining qaroriga ko'ra olib qo'yilishi, musodara, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilinishi oqibatida yuz bergan zararlar;

- sug'urtalangan avtotransport vositasini qarovsiz (yeshiklarni ochiq qoldirish, kalitni o't oldirgich og'zida qoldirib ketishi) qoldirish oqibatida avtotransport vositasi olib qochilsa.

- buyumlarning zarbasi natijasida avtotransport vositasi oynalari, yoritish chiroqlari hamda kuzovida hosil bo'lgan nuqtali, chiziqli shikastlanishlar uchun.

4.3. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) sug'urta tovonini to'lashni rad yetishga haqlidir, agar:

- sug'urtalangan avtotransport vositasi Sug'urtalovchi bilan yozma kelishuvsiz lizingga, ijaraga yoki garovga berilgan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) mazkur shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchini sug'urta hodisasi yuzaga kelganligi haqida shartnomada ko'rsatilgan vaqtda (72 soat ichida) yo'zma/og'zaki habardor qilmagan bo'lsa;

- amaldagi qonunchilikka muvofiq sug'urtalangan avtotransport vositasini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs sug'urtalangan avtotransport vositasini boshqargan bo'lsa;

- TVni xarakatlanishi yoxud xarakatiz turgan vaqtda yo'lga hayvonlar (it, qo'y, mol va h.k.z) ning chiqib ketishi/yo'l transport xodisasiga uchrashi natijasida shikastlanishi zarar yetishi;

Imzo: Sug'urtalovchi
oluvchi

Imzo: Naf

- hodisa to'g'risidagi arizada Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakili zararining sabablari va miqdori to'g'risida yolg'on ma'lumot ko'rsatgan bo'lsa, shuningdek, agar Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakili hodisaning holatlarini yoki zararining miqdorini tasdiqlash uchun qalbakilashtirilgan hujjatlarni ko'rsatsa;

- Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakili zararining sabablari va miqdorini aniqlash uchun kerakli hujjatlarni taqdim yetmagan bo'lsa;

- sug'urta hodisasi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan geografik zonadan tashqarida avtotransport vositasidan foydalanganda yuz bergan bo'lsa.

- yuz bergan hodisa haqida vakolatli organlarga (yo'l harakati xavfsizligi organlariga, yong'in xavfsizligi, ichki ishlar organlariga va boshqalarga) xabar bermasa;

- Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchini sug'urta hodisasi yuzaga kelganligi haqida shartnomada ko'rsatilgan vaqtida (72 soat ichida) yozma xabardor qilmagan bo'lsa;

4.3.1. Agar hodisa quyidagilar oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini va sug'urta puli summasini to'lashdan ozod yetiladi:

-avtotransport vositasidan boshqarishga o'rgatish maqsadida yoki musobaqalarda va sinovlarda ishtirok yetish, foydalanish;

-yadroviy portlash, radiasiya yoki radioaktiv tarqalish ta'sir yetishi;

-harbiy harakatlar, manevrlar yoki boshqa harbiy chora-tadbirlar.

5- BO'LIM. SUG'URTA PULI, SUG'URTA MUKOFOTI, FRANSHIZA

5.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha sug'urta puli 50 000 000,00(Эллик миллион сўм 00 тийин) so'm tashkil etadi.

5.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha sug'urta mukofoti 1 050 000,00 (Бир миллион эллик минг сўм 00 тийин) so'm tashkil etadi

5.3. Sug'urta mukofoti (yoki uning birinchi qismi) ushbu sug'urta shartnomasi imzolangan kundan boshlab 3 (uch) ish kunidan oshmagan muddatda to'lanishi shart.

5.4. Shartnomada ushbu Shartnomaning 2-ilovasida miqdori ko'rsatilgan, har bir sug'urta hodisasi bo'yicha shartsiz franshiza o'rnatilishi mumkin.

5.5. Ushbu Shartnoma bo'yicha barcha o'zaro hisob-kitoblar ushbu Shartnomaning 2 ilovasida ko'rsatilgan valyutada amalga oshiriladi.

6- BO'LIM. SHARTNOMA KUCHGA KIRISHI, AMAL QILISH MUDDATI, TUGATISH VA BEKOR QILISH TARTIBI.

6.1. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan ye'tiboran kuchga kiradi va sug'urta polisida ko'rsatilgan davrga qadar amal qiladi.

6.2. Sug'urta polisini rasmiylashtirish Sug'urtalovchi tomonidan, Qarz oluvchining yozma ma'lumotlari (1-illova)ga asosan Mazkur shartnoma shartlariga muvofiq rasmiylashtiriladi va unda ko'rsatilgan muddat davomida amal qiladi.

6.3. Sug'urta polisini rasmiylashtirish uchun taqdim yetiladigan ariza (1-illova)ga garovga qo'yilayotgan transport vositasining garov qiymatini kelishish bo'yicha Baholash dalolatnomasi va Kredit shartnomasi nusxasi ilova qilinishi shart.

6.4. Sug'urtalovchining ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta javobgarligi sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta mukofoti to'liq to'langan kundan boshlab kuchga kiradi. Sug'urta mukofoti qisman to'langanda sug'urta javobgarligi to'langan sug'urta mukofotiga mutanosib ravishda olib boriladi. Sug'urtalovchi yoki uning sug'urta agentining bank hisob raqamiga pul mablag'lari kelib tushgan kun sug'urta mukofoti to'langan kun bo'lib hisoblanadi va sug'urta javobgarligi sug'urta mukofoti to'langan kundan keyingi kun soat 00:00 dan boshlab kuchga kiradi.

6.5. Ushbu shartnoma bilan shartlashilgan sug'urta sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan qo'llaniladi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

6.6. Kredit shartnomasi/kelishuvining muddati uzaytirilgan taqdirda ushbu Shartnomaning muddati qo'shimcha kelishuv tuzish va tegishli qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lash yo'li bilan uzaytirilishi mumkin.

6.7. Sug'urta polisi sug'urta mukofoti/uning birinchi/navbatdagi badali Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga kelib tushgan kuni ichida yelektron shaklda beriladi. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan taqdirda Sug'urta polisi sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib davr uchun beriladi.

6.8. Sug'urta qildiruvchi Naf oluvchi oldidagi kreditni so'ngidirish bo'yicha majburiyatlarini to'liq hajmda bajargan taqdirda Sug'urta qildiruvchining o'zi Naf oluvchi bo'lib hisoblanadi.

6.9. Ushbu Sug'urta shartnomasi taraflardan birining yozma arizasiga ko'ra bekor qilinishi mumkin. Sug'urta polisini bekor qilish uchun barcha taraflarning roziligi talab qilinadi. Sug'urta polisi taraflar o'rtasida bekor qilish to'g'risidagi kelishuv bitimi imzolanganidan so'ng bekor bo'ladi. Sug'urta Qildiruvchi (Naf oluvchi) Sug'urta shartnomasini muddatdan oldin bekor qilgan taqdirda sug'urta mukofoti qaytirlmaydi.

6.10. Agar ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchi sug'urta tovonini bunday to'lov summasidan qat'iy nazar to'lagan bo'lsa yoki unda sug'urta hodisasi yuz berishi munosabati bilan sug'urta tovonini to'lashga doir majburiyat bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

6.11. Ushbu Sug'urta qoidalarini quyidagi hollarda tugatiladi:

- a) amal qilish muddati tugaganida;
- b) Sug'urtalovchi tomonidan majburiyatlar to'liq hajmda bajarilganida;
- g) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda;

7-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining huquqlari:

- a) Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda ushbu Shartnomaga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritishi;
- b) Ushbu Shartnoma bo'yicha Sug'urtalovchidan maslahatlar olishi;
- v) Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olishi.

7.2. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

- a) ushbu Shartnoma bilan belgilangan tartib va muddatda sug'urta mukofotini to'lashi;
- b) sug'urtalangan transport vositasini yong'inga qarshi qoidalarga to'liq mos holatda saqlashi, nazoratchi idoralarning talablari ijrosini ta'minlashi, foydalanish bo'yicha tegishli qoidalarga amal qilishi;
- v) Shartnomani tuzayotganda ariza-so'rovnoma ko'rsatilgan, o'ziga ma'lum bo'lgan tafsilotlardagi o'zgarishlar haqida, agar bu o'zgarishlar qaltislik darajasiga sezilarli ta'sir qilsa, darhol xabar berishi;
- g) Shartnoma doirasida Sug'urtalovchidan sug'urta tovonini to'lash haqida talabga asos bo'lishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lganda Sug'urtalovchini u sodir bo'lganligi haqida Shartnomaning 8.1-bandida ko'rsatilgan muddat va uslubda xabardor qilishi;
- d) Sug'urtalovchi da'voni ko'rib chiqish va regress talabini amalga oshirish maqsadida talab qilishi mumkin bo'lgan barcha harakatlar va amallarni Sug'urtalovchining hisobidan bajarishga rozi bo'lishi;
- ye) mazkur Shartnoma amalda bo'lgan muddatda Sug'urtalovchidan olingan axborotni sir saqlashi, Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat idoralariga axborot taqdim yetishi shart bo'lgan holatlar bundan mustanso.
- j) Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta xodisasi natijasida Sug'urta Qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lab berilgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining birinchi talabiga binoan garovga qo'yilgan mulkning shikastlangan qismlarini taqdim yetishi shart. Sug'urtalovchi tomonidan to'lab berilgan sug'urta tovoniga nisbatan taqdim etilmagan ehtiyoj qismlar uchun to'langan tovon summasidan mutanosib ravishda Sug'urta qildiruvchidan qaytarib olishga haqli.

7.3. Sug'urtalovchining huquqlari:

- a) sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimolini kamaytirishga yo'naltirilgan oldini olish choralari amalga oshirishi;
- b) sug'urta hodisasi sodir bo'lishi qaltisligi darajasini tavsiflovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilishi. Ushbu Shartnoma amalda bo'lgan muddatda qaltislik darajasi o'zgargan taqdirda sug'urta mukofoti miqdori oshirilishi yoki kamaytirilishi talab qilishi mumkin;
- v) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi taqdim yetgan hujjat va axborotni haqiqiy ekanligi/rostligi/obyektivligi nuqtayi nazaridan, shuningdek Sug'urta qildiruvchi ushbu Shartnoma shartlarini bajarishini tekshirishi;
- g) Sug'urta qildiruvchi/Haydovchi va/yoki Naf oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda sug'urta tovonini to'lovini rad yetishi;
- d) ushbu Shartnomaning 8.1-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni hammasini talab qilmasdan ham voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki olmaslik (yoki sug'urta tovonini to'lovini rad yetish) haqida qaror qabul qilishi;
- ye) sug'urta mukofoti (yoki uning qismi) ushbu shartnomada kelishilgan muddatda to'lanmagan taqdirda sug'urta shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.
- j) Sug'urta voqearining tavsifi va tafsilotlaridan kelib chiqib, Sug'urta qildiruvchi mazkur shartnomaning tegishli bandida ko'rsatilgan hujjatlarni talab qilmasdan ham o'zining huquqidan foydalangan holda sug'urta tovonini to'lab berish huquqiga yega.

7.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- a) ushbu Shartnomada belgilangan muddatda Sug'urta polisi berishi;
- b) barcha zarur hujjatlarni olib, sug'urta hodisasini tan olgandan keyin ushbu Shartnomada kelishilgan miqdor va muddatda sug'urta tovonini to'lovini amalga oshirishi;
- v) Sug'urta qildiruvchiga ushbu Shartnoma bo'yicha maslahatlar berishi;
- g) ushbu Shartnoma amalda bo'lgan muddatda Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchidan olingan axborotni sir saqlashi, Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat idoralariga axborot taqdim yetishi shart bo'lgan yoki ushbu shartnoma bo'yicha axborotni oshkor qilishga Sug'urta qildiruvchining yozma ruxsati bo'lgan holatlar bundan mustanso.

8-BO'LIM. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH

8.1. Sug'urtalovchidan sug'urta tovonini to'lash bo'yicha talabga asos bo'lishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Haydovchi quyidagilarni amalga oshirishi shart:

- darhol sodir bo'lgan voqea to'g'risida mutasaddi idoralarga (yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi, yong'in xavfsizligi boshqarmasi, ichki ishlar idoralariga va b.) xabar qilishi;

- darhol, lekin 72 soatdan kechiktirmasdan Sug'urtalovchini bu haqida xabardor qilishi va voqea sodir bo'lgandan keyin 5 (besh) ish kuni ichida Sug'urtalovchiga voqea joyi, sababi va tafsilotlari ko'rsatilgan yozma xabarnomani yo'llashi.

Sug'urta to'voni to'lovi to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilishini shart:

- a) Sug'urta polisi;
- b) Haydovchilik guvohnomasi;
- v) Transport vositasini ro'yxatga olish to'g'risida guvohnoma;
- g) Ishonchnoma yoki transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi boshqa hujjat;
- d) Voqea sababi va tafsilotlarini ko'rsatgan holda sodir bo'lgan voqeani tergov qilishga vakolati bor mutasaddi idoralardan tegishli ma'lumotnoma;
- ye) Baholash faoliyatini amalga oshirishga lisenziyasi bor baholovchi tashkilot tomonidan barcha ishlar, yehtiyot qismlar va materiallar ko'rsatilgan moddiy zararni baholash bo'yicha hisob-kitob, bunda uni o'tkazilishi bilan bog'liq xarajatlar Sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.

yo') sug'urta to'voni to'lash va zarar miqdorini aniqlash uchun Sug'urtalovchi talab qilgan boshqa hujjatlar;

Ushbu Shartnomaning 8.1 «a» - «ye» bandlarida nazarda tutilgan hujjatlar ulardan nusxa ko'chirilib, taqdim yetilgan hujjatlar haqiqiy yekanligi tasdiqlangandan keyin Sug'urta qildiruvchiga qaytariladi.

8.2. Sug'urta qildiruvchi har qanday yo'qotish va/yoki shikastlanish haqida xabar qilganda Sug'urtalovchi o'z xodimini yoki boshqa shaxsni sodir bo'lgan voqeaning turi, sababi va tafsilotlarini batafsil o'rganish uchun yuborishga haqli.

8.3. Barcha zarur hujjatlarini va ushbu voqega aloqador tafsilotlarni o'rgangandan so'ng Sug'urtalovchi sodir bo'lgan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror chiqaradi.

8.4. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash yoki to'lashni rad yetish to'g'risidagi qarori sug'urta qildiruvchiga u sug'urta tovonini to'lashni so'rab murojaat etganidan keyin o'n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

8.5. Voqea sodir bo'lganligi munosabati bilan jinoiy ish, fuqarolik ishi yoki ma'muriy ish qo'zg'atilgan taqdirda Sug'urtalovchi mutasaddi idoralar tegishli qaror chiqargunga qadar to'lanadigan mablag'lar xaqidagi qarorini keyinga qoldirishga haqli.

8.6. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini, shuningdek yetkazilgan zararlarni isbotlash Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi zimmasida.

8.7. Sug'urta voqearining tavsifi va tafsilotlaridan kelib chiqib, Sug'urtalovchi ushbu Shartnomaning 8-bo'limida ko'rsatilgan hujjatlarning hammasini ham talab qilmasdan sodir bo'lgan voqeani tan olish yoki tan olmaslik (sug'urta to'voni to'lovini rad yetish) to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

9-BO'LIM. SUG'URTA TOVONI TO'LOVI

9.1. Sug'urtalovchi sug'urta to'voni to'lovini sug'urta hodisasini tan olib, Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan keyin 10 (o'n) ish kuni ichida amalga oshiradi.

9.2. Sug'urtalangan transport vositasidan mahrum bo'lish yoki uni shikastlanishida tovon to'lash tartibi.

Sug'urtalovchi sodir bo'lgan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olgan taqdirda quyidagi koidalarga rioya kilgan holda to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta hodisasining mikdori aniqlanadi:

9.2.1. Transport vositasi olib qochilgan yoki to'liq nobud bo'lgan taqdirda – Sug'urtalovchi transport vositasi sug'urtalangan sug'urta puli doirasida to'laydi.

9.2.2. Sug'urtalangan transport vositasi shikastlangan taqdirda Sug'urtalovchi baholash faoliyatini amalga oshirish uchun lisenziyasi bo'lgan baholovchi tashkilot tuzgan moddiy zararni baholash naryad-buyurtma/hisob-kitob miqdorida, agar Shartnoma bilan franshiza o'rnatilgan bo'lsa, franshizani chegirib qolgan holda ushbu Shartnomaning 2-ilovasida ko'rsatilgan sug'urta pulidan oshmagan miqdorda sug'urta to'voni to'laydi, ammo sug'urta hodisasi sodir bo'lishi natijasida transport vositasiga yetkazilgan zararni baholash faoliyatini amalga oshirish uchun lisenziyaga yega baholovchi tashkilot amalga oshirgan baholash bilan bog'liq xarajatlar qoplanmaydi;

1-maxsus qo'shimcha shart:

Ushbu bilan Shartnoma bo'yicha tomonlar ushbu Shartnomaga muvofiq Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi/Haydovchining sug'urtalangan transport vositasini o'zgartirish, takomillashtirish, yangilash bilan bog'liq xarajatlari qoplanmasligini tasdiqlaydilar va bunga rozi bo'ladilar;

2-maxsus qo'shimcha shart:

Ushbu bilan Shartnoma bo'yicha tomonlar ushbu Shartnomaga muvofiq sug'urta hodisasi yoki har qanday zarar va/yoki ob-havo omillari ta'siri oqibatida sug'urtalangan transport vositasi tovar ko'rinishini yo'qotishi qoplanmasligini tasdiqlaydilar va bunga rozi bo'ladilar.

3-maxsus qo'shimcha shart:

Sug'urtalovchi shuningdek quyidagi xarajatlarni qoplaydi:

- sug'urta hodisasidan kelib chiqqan va hujjatlar bilan tasdiqlangan, transport vositasini ta'mirlash jarayonida aniqlangan yashirin shikastlarni bartaraf yetish bilan bog'liq xarajatlar;

9.3. Sug'urta tovonini to'lash:

9.3.1. Sug'urta to'voni Sug'urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq to'lanadi. Bunda Naf oluvchi Sug'urta qildiruvchining Naf oluvchi oldidagi kredit bo'yicha qarzidan oshmagan miqdorda sug'urta to'voni olish huquqiga yega bo'lib, sug'urta tovonining qolgan qismi Sug'urta qildiruvchining zararlarini qoplash bo'yicha xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi.

9.3.2. Barcha holatlarda, sug'urta to'voni miqdori belgilangan 30% shartsiz franshiza miqdorini chegirib qolgan holda hisoblanadi.

Imzo: Sug'urtalovchi
oluvchi

Imzo: Naf

9.3.3. Agar ushbu Shartnoma bo'yicha sug'urta puli Shartnoma tuzilayotgan kundagi sug'urta qiymatidan kam miqdorda o'rnatilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga yetkazilgan zararlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasiga muvofiq, sug'urta pulining sug'urta qiymatiga mutanosib bo'lgan nisbatda qoplashi shart. Agar sug'urta qiymati belgilanmagan yoki noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa sug'urta qiymati transport vositasining haqiqiy qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi. Shuningdek yo'l transport hodisasi sodir bo'lganda boshqa shaxslardan undirilgan sug'urta tovonini chegirilib, qolgan zarar miqdori sug'urta pulining sug'urta qiymatiga nisbatiga proporsional ravishda qoplab beriladi.

9.3.4. Ushbu Shartnoma bo'yicha sug'urta tovonini oluvchining bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish orqali to'lanadi.

9.3.5. Agar zarar miqdori sug'urta voqeasida aybdor tomonidan to'liq qoplangan bo'lsa va/yoki qoplanadigan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi sug'urta tovoniga bo'lgan o'z huquqini yo'qotadi.

9.3.6. Sug'urta qilingan TV ga yetkazilgan zararni o'rni qoplash yuzasidan Sug'urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan sug'urta tovonining har bir to'lovi, agar Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta pulini tiklash uchun qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanmasa, sug'urta pulini (Sug'urtalovchi majburiyatlarining limitini) bunday to'lov summasiga kamaytiradi. Bunda Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) Sug'urtalovchidan to'langan sug'urta tovonini summasiga va sug'urta Shartnomasi (polisi) amal qilishining qolgan muddatiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lash to'g'risidagi xabarnomani olgan kundan bir hafta muddatda tegishli qo'shimcha to'lovni amalga oshirishi lozim.

9.4. Sug'urta tovonini to'langan taqdirda Sug'urtalovchi sug'urtalangan transport vositasining zararlangan qismlarini talab qilish huquqiga yega.

9.5. Sug'urta tovonini to'liq yoki qisman to'lagan Sug'urtalovchiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu mablag' chegarasida zarar yetkazilganligi uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi o'tadi, javobgar shaxs Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi bo'lgan holatlar bundan mustasno.

9.6. Barcha holatlarda sug'urta tovonini ushbu Shartnomada keltirilgan sug'urta pulidan ortiq bo'lmasligi shart.

9.7. Haydovchi aybi bilan sodir bo'lgan sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'langandan keyin Haydovchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining 957 va 1001 moddalarida ko'rsatilgan qayta talab qilish huquqi (subrogasiya va regress) qo'llaniladi, faqatgina mulk yegasi bundan mustasno.

10- BO'LIM. SHARTNOMANI BEKOR QILINISHI VA TUGATILISHI

10.1. Ushbu Sug'urta shartnomasi taraflardan birining yozma arizasiga ko'ra bekor qilinishi mumkin. Sug'urta polisini bekor qilish uchun barcha taraflarning roziligi talab qilinadi. Sug'urta polisi taraflar o'rtasida bekor qilish to'g'risidagi kelishuv bitimi imzolanganidan so'ng bekor bo'ladi. Sug'urta Qildiruvchi, (Naf oluvchi) Sug'urta shartnomasini muddatdan oldin bekor qilgan taqdirda sug'urta mukofoti qaytirlmaydi.

Agar ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchi sug'urta tovonini bunday to'lov summasidan qat'iy nazar to'lagan bo'lsa yoki unda sug'urta hodisasi yuz berishi munosabati bilan sug'urta tovonini to'lashga doir majburiyat bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

10.1. Ushbu Shartnoma quyidagi hollarda tugatiladi:

- a) amal qilish muddati tugaganida;
- b) «Sug'urtalovchi» tomonidan majburiyatlar to'liq hajmda bajarilganida;
- v) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

11- BO'LIM. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

11.1. Taraflar o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

11.2. Sug'urta mukofoti polis olishdan oldin to'liq to'lovini amalga oshiriladi.

11.3. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini yengib bo'lmaydigan kuch holatlaridan (fors-major holatlaridan) kelib chiqqan holda bajarmagan taqdirda, javobgargarlikdan ozod qilinadilar. Yengib bo'lmas kuch holatlari ta'siriga uchragan Taraf mazkur holatlarning yuzaga kelganligi va ular ta'sirining davom yetishi yehtimoli haqida boshqa Tarafni darhol xabardor qilishi shart.

12- BO'LIM. BAHSLARNI HAL ETISH TARTIBI

12.1. Ushbu Shartnomada keltirilgan masalalar yuzasidan bahslar, talablar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal etish choralarini ko'radilar.

12.2. Ushbu Shartnomadan kelib chiqqan bahslar, kelishmovchiliklar yoki talablar, shu jumladan uning ijrosi, buzilishi, tugatilishi yoki haqiqiy emasligi muzokaralar yo'li bilan hal etib bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi..

13- BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

13.1. Ushbu Shartnomaga barcha qo'shimchalar va o'zgarishlar, shuningdek uni uzaytirish yoki tugatilishi tomonlarning roziligi bilan yozma shaklda amalga oshirilishi, Kredit shartnomasi/kelishuviga oid o'zgarishlar bo'lganda, bekor qilinganda yoki tugatilganda esa Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi tomonidan uning o'zgarishi/bekor bo'lishi/tugatilishi paytidan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida Sug'urtalovchi xabardor qilinishi shart.

13.2. Sug'urtalangan transport vositasiga bo'lgan huquqlar Naf oluvchiga yoki boshqa shaxsga o'tgan taqdirda ushbu Shartnoma bo'yicha Sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari Naf oluvchiga yoki sug'urtalangan transport vositasiga

Imzo: Sug'urtalovchi
oluvchi

Imzo: Naf

boʻlgan huquqlar oʻtgan masʼul shaxsga oʻtadi.

13.3. Shartnomada tartibga solinmagan oʻzaro munosabatlar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

13.4. Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga yega va Sugʻurtalovchi, Sugʻurta qildiruvchi, Naf oluvchida bir nusxadan saqlanuvchi 3 (uch) nusxada tuzildi.

14- BOʻLIM. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

SUGʻURTALOVCHI: «MY-INSURANCE» AJ ST	SUGʻURTA QILDIRUVCHI:
Manzil:100015, Toshkent sh., Mirobod tumani,Kichik Mirobod ko'chasi,, 95-uy Bank nomi:O'ZR TIF "MILLIY BANK" SAYOXAT FILIALI Bank kod:00450 Bank x/r.:20208000104786066001 XXTUT:96220 STIR:207002342	
«MY-INSURANCE» ÀÆ CT ФАРФОНА ВИЛЮЯТИ Abdullayev.S.A _____ Imzo m.oʻ.	
NAF OLUVCHI: “Universalbank” ATB Golovnoy ofis	GAROVGA BÂRUVCHI:
Manzil:ФАРФОНА ВИЛЮЯТИ, ФАРФОНА ТУМАНИ, ул. Шохрухобод, 0 Bank nomi:Головной офис Универсал банка Bank kod:00973 Bank x/r.:22510000700000973001 XXTUT: STIR:203556638	
“Universalbank” ATB Golovnoy ofis _____ Imzo m.oʻ.	

Garovga qo'yilayotgan transport vositalarini sug'urtalash shartnomasining 1-ilovasi

1-QISMI. Umumiy ma'lumotlar:		
1	Sug'urta qildiruvchi Pasport seriyasi, JSHSHIR, INN	
2	Sug'urta qildiruvchi manzili	
3	Sug'urta shartnomasining muddati	14 сентябрь 2026 dan 14 сентябрь 2029 gacha
3.1	Sug'urta muddati	sug'urta polisida ko'rsatilgan
4	Naf oluvchi	"Universalbank" ATB Golovnoy ofis
5	Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi o'rtasida shartnomalar (kredit shartnomasi, lizing shartnomasi va sh.o'')	_____ sonli kredit shartnomasi
6	O'zaro hisob-kitob valyutasi	So'm
7	Sug'urta hududi	O'zbekiston Respublikasi
2-QISMI. Transport vositasi to'g'risida ma'lumot ilova qilinadi:		
1	Франшиза*	%
3-QISMI. Umumiy sug'urta puli:		
Shartnoma bo'yicha umumiy sug'urta mukofoti:		Бир миллион эллик минг сўм 00 тийин(Бир миллион эллик минг сўм 00 тийин) So'm
4-QISMI. Sug'urta mukofoti to'lovi:		
Sug'urta mukofoti quyidagi tartibda to'lanadi		Bir vaqtning o'zida

SUG'URTALOVCHI	SUG'URTA QILDIRUVCHI	NAF OLUVCHI	GAROVGA QO'YUVCHI
«MY- INSURANCE» AJ ST Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, kichik Mirobod ko'chasi,95-uy tel: (+998) 71-205-19-19 h/r: 20208000104786066001 да Bank kodi: 16 STIR: 207002342 XXTUT: 65120,		"Universalbank" ATB Golovnoy ofis Manzil: ФАРФОНА ВИЛЮЯТИ, ФАРФОНА ТУМАНИ, ул. Шохрухобод, 0 tel: +998 (00) 000-00-00 b/raqami: 22510000700000973001 Bank kodi: Головной офис Универсал банка STIR: 203556638	
<u>Abdullayev.S.A</u> _____ Imzo m.o'.	_____ Imzo m.o'.	_____ Imzo m.o'.	_____ Imzo m.o'.

Imzo: Sug'urtalovchi
oluvchi

Imzo: Naf

2-QISMI. Transport vositasi to'g'risida ma'lumot							
№	Rusumi, modeli va modifikasi*	Ro'yxatga olish №*	Ishlab chiqarish yili *	Texnik pasporti №*	Kuzov va dvigateli	Transport vositasi sug'urta qiymati	Transport vositasi sug'urta summasi
1							
	JAMI:						

shartnomasining 2-ilovasi

SUG'URTALOVCHI	SUG'URTA QILDIRUVCHI	NAF OLUVCHI	Garovga Ko'yuvchi
«MY- INSURANCE» AJ ST Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, kichik Mirobod ko'chasi,95-uy tel: (+998) 71-205-19-19 h/r: 20208000104786066001 da Bank kodi: 16 STIR: 207002342 XXTUT: 65120,		“Universalbank” ATB Golovnoy ofis Manzil: ФАРФОНА ВИЛОЯТИ, ФАРФОНА ТУМАНИ, ул. Шохрухобод, 0 Тел: +998 (00) 000-00-00 b/raqami: 22510000700000973001 Bank kodi: Головной офис Универсал банка х/р 22510000700000973001 МФО: 00973 ИНН: 203556638 ОКОНХ: Тел: +998 (00) 000-00-00 Факс:	
Abdullayev.S.A _____ Imzo m.o'.	_____ Imzo m.o'.	_____ Imzo m.o'.	_____ Imzo m.o'.

Imzo: Sug'urtalovchi

Imzo: Naf oluvchi